

FARG'ONA VODIYSI KULOLCHILIGI AN'ANALARI**Kayumov Erkin Kazakbayevich***Guliston davlat universiteti, Amaliy san'at va dizayn
kafedrasi o'qituvchisi erkin2267@mail.ru***Akbaraliyev Bunyodjon Baxromjon o'g'li***Guliston davlat universiteti, Amaliy san'at(badiiy kulolchilik) ta'lim
yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: O'zbekistonning gavhari deb atalmish Farg'ona vodiysi hududi o'zining qadimiy shaharlari, bepoyon dalalari, me'moriy obidalar, go'zal bog'lardagi shirin - shakar mevalari, Chust pichoq va do'ppilari, Marg'ilon do'ppilari, Shahrixon pichoqlari, ipakli matolari atlas, adrasi, shoyi, beqasamlari kabi hunarmandchilik mahsulotlari bilan mashhurdir. Qadimgi arxeologik yodgorliklardan topilgan turli hunarmandchilik namunalari an'analari davom ettirayotgan kulolchilik maktablari, me'moriy bezaklar uchun koshinlar, mozaika va boshqa kulolchilik mahsulotlarini yaratilmoqda.

Kalit So'zlar: Kulol, me'moriy bezak, naqsh, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, pargori, timpan, unsur, koshin, kitoba, terrakota, amaliy bezak, dastgox, angob, sir, xal, simobdon, usta-shogird, simmetriya.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ozbek xalq amaliy san'ati haqida fikr yuritilganda dastavval shuni ta'qidlash

kerakki, bu san'at o'zining uzoq tarixiga, milliy an'analari ega. Ozbek xalq amaliy san'ati asrlar davomida rivojlanib, sayqallanib bordi. Nafis va serjilo naqshlar bilan ziynatlangan, asrlar osha oz korku salobatini yoqotmay kelayotgan mahobatli ma'moriy obidalar, latif oyma bezakli yogoch ustunlar, eshik va dorbozalar, kozni qamashtiruvchi gozal zargarlik buyumlari, zardozlik buyumlari bu fikrimizning isbotidir. Milliy xalq amaliy sanatimizni ozbek olimlaridan P.Zohidov, A.A.Hakimov, S.Abdullayev, I.Azimov, A.Amanullayev, K.Akilova, M.Ahmedov, B.Boymetov, S.Bositxonov, S.Bulatov, M.Bulatov, G'.Mirzaliev, S.Sh.Aliyeva, U.Nurtayev, A.Sulaymonov, K.Qosimov, R.Hasanov, A.Akparov, M.S.Abdullayev, K.Kraxmal, V.Buvaev, X.T.Umarov, B.A.Ruzinovlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizga tarixdan ma'lumki o'zbek xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiyligi, madaniyatining bebaho hamda serqirraligi bilan butun dunyoda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda. Buni albatta hozirgi kungacha o'z me'moriy obidalarini saqlanib qolgan qadimiy shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy bezak san'ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, bebaho san'at asarlari bo'lib, jahon madaniyati durdonalari qatorida o'z o'rniga ega. Jumladan ko'p asrlar mobaynida orttirilgan moddiy, madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik kabi turlari saqlanib qolganligini guvohi bo'lamiz.

Amaliy – badiiy bezak san'ati – o'z nomiga ko'ra amaliyotda, ya'ni turmushda qo'llaniladigan bezak san'ati ma'nosini anglatadi. Amaliy – badiiy bezak san'ati turli xil buyumlar, ko'chalar, maydonlar, o'quv-tabiiyaviy muassasalar, moddiy inshootlarni badiiy bezatish bilan bog'liq. Shuningdek, u insoniyat turmushida shunchalik keng qo'llaniladiki, usiz turmushni tasavvur etish qiyin. Amaliy – badiiy bezak san'ati idish-tovoqlar, kiyim kechaklar, gazmollar bezagi va boshqa turli bezaklarda qo'llaniladi. Amaliy-bezak san'ati nihoyatda qadimiy bo'lib, u kishilarning mehnat faoliyatlari va ehtiyojlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Xalq amaliy san'ati juda qadim zamonda paydo bo'lib, xalq hunarmandchiligi tarzida rivojlanib san'atning eng qadimgi rivojlangan va barhayot turi bo'lib kelgan. Amaliy bezak san'ati buyumlari, birmuncha erkin ijodkor tafakkuri mahsuli sifatida yaratiladi va u tevarak atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo'ladi.

Kulolchilik san'ati mahsulotlari turli soz tuproqdan tayyorlangan loydan mo'jizakor go'zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Bu qora loy, sahovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojni o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi san'atining zaminidir. O'zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an'analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o'ziga hos uslubga ega. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko'za, lagan, hurmacha, tog'ora, hum, tandir, buyum, o'yinchoqlar, qurilish ashyolari, qoshinburishlik, metal eritish qoliplarini va boshqalar tayyorlanadigan soha bo'lib, u uzoq tarixga ega. Tuproq jahonning hamma erlarida bo'lgani uchun qulolchilik keng tarqalgan bo'lib, keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni mahsus o'choq hamda humdonlarda pishirganlar. VIII-XII asrlarda qulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi

rivojlangan. XIV asrdan boshlab O'rta Osiyo teritoriyasida kulolchilik tez sur'atlar bilan rivojlandi. O'rta Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez sur'atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislana bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar. XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib turli kulolchilik markazlari paydo bo'ldi.

Jahongir Amir Temur O'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali milliy madaniyatimizning yo'q bo'lib ketishiga, balki qo'shni yurtlarning rivojlangan madaniyatini, ilmiy saloxiyatini, xalq amaliy san'ati va boshqa san'at turlarini uyg'unlashtirish, olib kelish orqali aloqalarimizni rivojlantirdi. Va xalqimizning madaniyati, san'ati, shu jumladan, Samarqandga yirik-yirik san'atkorlar, shoiru-ulamolarni, hunarmandu-ustalarni to'plab ko'plab jam'oe masjidlar, madrasalar, xonaqolar, karvonsaroylar va boshqa ulkan dunyoviy inshootlar qurirdi.

Shuningdek, ushbu xalq amaliy bezak san'ati turlarining turli davrlarda turli xalqlar tomonidan bosqinchiliklari oqibatida ham xalqimiz o'z milliy hunarmandchilik namunalarining, ya'ni har bir xalq amaliy san'at ustalari o'zining o'ziga xos maktablarini yaratgan ustalar tomonidan o'z kasbining mohir ustasi, yaratuvchisi bo'lish bilan birga o'z mahsulotini texnologiyasi va tayyorlash sir asrorlarini usta-shogird ananalari bilan kelajak avlodlarga qoldirib kelishayotganligi buning yorqin namunasidir. Lekin shu bilan birgalikda eng ko'p bizning milliy qadriyat va an'analarimizni, osori atiqalarimizni oyoq osti qilgan, bebaho milliy xalq amaliy san'ati namunalari hamda buyuk allomalarimiz tomonidan bitilgan qo'lyozma kitoblarimizni sobiq Sho'ro tuzumi davrida talon-taroj qilib tashib ketilishi, shu bilan milliy urf-odat va qadriyatlarimizning asta-sekin yo'qolib qetish havfini tug'dirgan edi.

Mustaqillik sharofati bilan bugungi kunda yurtimizda xalqimizning asrlar bo'yi qadoq qo'llari bilan yaratgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan amaliy bezak san'atini ko'z qorachigiday saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, ular orqali yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashga keng imqoniyatlar yaratilmoqda. Buning misolida huqumat tomonidan bir qancha Qonun va qarorlar qabul qilinib o'zining ijobiy samaralarini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik

bilan shug'ullanayotgan insonlarga shart-sharoitlar yaratishda keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Jumladan unda O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama ko'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsad qilib qo'yilganligini ko'ramiz. Hamda qulolchilik mahsulotlari turizm salohiyatining ham asosiy bo'g'inlaridan biri ekanligi inobatga olinib, 2019 yildan boshlab NamDUning san'atshunoslik fakulteti qoshida kulolchilik bo'limiga talabalar qabul qilindi. Bu bilan milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni yana bir bor dunyo yuzini qayta ko'rishiga imqon yaratilganligini yorqin namunasidir. Qulolchilik san'ati ham amaliy san'atning rivojlangan turlaridan biridir. O'zbekiston kulolchilik san'atining eng boy merosini saqlab qolgan maskan hisoblanadi, chunki zamonaviy an'anaviy va noan'anaviy kulolchilik san'ati (XIX asrda tarixan shakllangan) vakillarida mahalliy madaniyatning tarixiy qatlamlariga qiziqishlari kuzatilmoqda.

O'zbekistonda qadimdan har vohaning hunarmandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Axsikent — Farg'onadagi katta shaharlardan biri va poytaxti sifatida IX-X asrdagi Axsiketning sirlangan badiiy kulolchiligi go'zallik namunasi sifatida oq fondagi nafis shakllarda ishlangan. Ishlab chiqarish uslubi bo'yicha kulolchilik ikkita asosiy turlarga bo'lingan – sirlangan va sirlanmagan. Sirlanmagan kulolchilik qadim tarixga ega. VIII asr oxiri – IX asr boshida Movarounnahr shaharlarida sirlangan kulolchilik keng tarqalgandi. IX-XVIII asrlarda ushbu uslub badiiy kamolikka va yuqori texnologik sifatga ega edi. Farg'ona vodiysida asosiy qulolchilik maktablari va markazlar tashkil topdi, bunda qulolchilikda an'anaviy moviy rangdagi ishqorli sir tayyorlash yo'lga qo'yilgan, ammo ular o'ziga xos bezak-naqshlari va buyumlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Badiiy kulolchilik san'ati har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda va targ'ib etilmoqda, uning yanada rivoj olishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Shu maksadda respublikamiz xukumatining qator xujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, kadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at

namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham etarli deb bo'lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o'rgatilayotgan joylarda chunonchi: oliy o'quv yurtlari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalarida, shaxsiy usta-shogird asosida o'rgatilayotgan ustaxonalarda, qo'shimcha ta'lim muassasalarida usta va shogirdni sharqona odobi to'liq o'rgatilmassligi o'quvchi-yoshlarimizni ahloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman ular ma'naviyatining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatilayotganligining guvohi bo'lamiz. Shuning uchun ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosidan to'g'ri va unumli foydalanish lozim. Shunda ajdodlarimiz ma'naviy merosiga bo'lgan hurmat-e'tibor kuchayadi hamda o'z yurtiga bo'lgan mehri oshadi. Qisqa qilib aytsak, tuproq qadim zardushtiy avlodlarimizning "Avesto" kitobida keltirilgan to'rtta unsur (olov, tuproq, suv, havo) dan biri hisoblanadi. Aytish joiz bo'lsa, Allox Odam Atoni ham tuproqdan yasab jon kiritgan ekan. Shuning uchun tuproqdan yasalgan sopol ham insoniyat, hayvonot va nabotot uchun ham ahamiyatlidir.

Mustaqillik davrida kulolchilik ustaxonalari qaytadan tashkil etilib, unda usta shogird maktab va o'quv ishlab chiqarish markazlari tashkil etilib u erda xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. Qadimiy an'anaviy kulolchilik maktablarining bezash ishlari bilan amaliy tarzda texnologik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sidqidildan o'rgata boshladilar. Farg'ona vodiysida kulolchilikning an'anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklanib, sirli kulolchilik mahsulotlarini tayyorlash yo'lga qo'yildi. Yoshlar o'rtasida hunarmandchilikni rivojlantirish va "Usta-shogird" maktabi faoliyatini muvofiqlashtirish yurtimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarni to'liq saqlab qolish va rivojlantirish, milliy hunarmandchilik faoliyatini kengaytirish maqsadida so'nggi yillarda Rishton kulolchilik maktabi yanada rivojlandi. Usta Ibrohimjon Komilov, Bobojon Nishonov, Hakimjon Sattorov, Rustamjon Usmonov, Alisher Nazirov, Sharofiddin Yusupov, Tohirjon Haydarov, Andijon maktabi ijodkorlaridan usta kulol Mirzabahrom Bahodir Turg'unov, hamda Namangan kulolchilik maktablari Asqarbek Akparov, Ne'matjon, Faxriddin, Anvarjon Abdurahmonov, G'urumsaroy kulolchilik maktabi namayondalaridan Maqsutali Turobov, Vahobjon Buvaev singari mashhur kulollar o'zlari yaratgan kulolchilik mahsulotlari bilan barchani hayratga solib o'z maktablarining davomiyligini ta'minlashmoqda.

Amaliy san'at ko'rgazlarni kuzatar ekanmiz, ularda mamlakatimiz kulol ustalarini noan'anaviy uslublarda yaratilgan san'at asarlarida mavzularning rang-barangligi, asarning yaratilishi, materiallari, syujetlarini zamon talabiga mosligini ko'rish bilan ijodning yangi, noan'anaviy xarakterini anglab olasiz.

Kulolchilik san'ati bo'yicha ijodkor maktablar: Rishton, G'ijduvon, G'urumsaroy, Xorazm, Samarqand kabi kulolchilik markazlari an'anaviy texnologiya va uslublarni ham tobora takomillashtirib, yangidan-yangi, g'oyat kuchli badiiy mazmunga ega bo'lgan san'at asarlarini yaratmoqdalar-ki, ular oldidan tomoshabin keta olmay, undagi g'oyat nozik, nafis, bejirim bezak kompozitsiyalariga maxliyo bo'layotganini ko'rasiz.

Hozirgi zamon kulolchiligining noan'anaviy texnologiya va uslubida yaratilgan asarlar tomoshabinni mantiqiy tafakkurga, falsafiy mushohadaga boshlasa, an'anaviy milliy kulolchilik, qadriyatimiz va an'analarimizga hurmat, ehtirom, ota-bobolar san'atiga ta'zimga chorlaydi. Mustaqillik yillarida yaratilgan: M.Rahmatovning «Qo'shquloqli ko'za» (G'urumsaroy), M.Turopovning «Lagan» (G'urumsaroy), Sh.Yusupovning «Lagan» (Rishton), B.Barotboyevning «Laganlar» (Qo'qon) kabi zamonaviy motivlarda an'anaviy uslublarda yaratilgan bu asarlari o'zining materiali, konstruksion shakli-shamoyili va ularni yaratishdagi sir, bezak, tasvir kompozitsiyasi, rang va bo'yoqlardagi ham an'anaviy, ham noan'anaviy texnologiyani uyg'unligi ham buyumlar badiiy ustunligini ta'minlaydi.

Xulosa sifatida shuni ta'qidlab o'tish joizki, ularning sayi harakatlari tufayli o'ziga xos kulolchilik maktablarini qayta rivojlantirib, xalq amaliy bezak san'atida o'z asarlarini yaratish bilan birgalikda ajoyib shogirdlar etkazib berishayotganligi quvonarli holdir albatda. Farg'ona kulolchilik maktablari boshqa shaharlar kulolchilik maktablaridan o'ziga xos usuli, naqsh kompozitsiyasi, koloriti, dinamikligi bilan kishilarda alohida o'rin tutadi. Jumladan yangi avlod vakillaridan esa asosan Toshkent maktabi kulolchiligi maktabini uyg'unlashuvini ko'rishimiz mumkin. Chunki asosan oliy ta'lim poytaxt oliy o'quv yurtlarida bo'lganligi sababli yosh avlod vakillari kulolchilikning umumlashgan holdagi maktabga xos bo'lgan keng ko'lamli ilmlarni egallab milliy qadriyatlarimizni qaytadan jahon hamjamiyatida e'tirof etilmoqda. Albatta kulolchilik an'analarini usta-shogird sifatida o'rganishdan tashqari, oliy ta'lim muassasalarida badiiy kulolchilik san'ati tarixi, kulolchilik texnologiyalari, materialshunosligi, badiiy bezash usullari, naqqoshlik, ranglash, sirlash,

pishirish kabi milliy qadriyat va an'analarini kabi bilimlarini egallashlari joizdir. Shu bilan madaniy-ma'rifiy tomonlama va o'z sohasiga oid bo'lgan xurmatni, mehnatlarini e'zozlashni hamda turistik salohiyatni dunyo hamjamiyatida yuqori saviyada ko'z-ko'z qilishga erisha olishadi. Shuningdek, turli zamonaviy texnologiyalar bilan birga tabiiy bo'yoqlardan foydalanish, pishirish va sirlash bosqichlarini ham egallay olishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezidentimizning 2017 yil 17 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
2. Xalq me'morchiligi. D.Nozilov. Toshkent-1982. "Fan" nashriyoti
3. Loyihalash. X.Umarov. Toshkent-2018. "INFO CAPITAL GROUP"
4. Ruzinov, B., & Abdullayev, A. (2021). Ko'hna Axsikent. Obiqtstvo i innovatsii, 2(2/S), 692-698.
5. Ro'zinov, B. A., Nuriddinov, B. X., & Karimboyev, X. Q. O'. (2021). Moddiy madaniy meros ob'ektlari orqali talabalarning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan mehrini uyg'otish. Academic research in educational sciences, 2(3), 99-108.
6. Ruzinov, B. A. (2022). Akhsikent Earthquake. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 9, 209-212.
7. Ro'zinov, B. A., Nuriddinov, B. X., & Umarov, X. (2021). Farg'ona vodiysi amaliy san'atining ta'lim tarbiyadagi O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(3), 117-123.
8. Ro'zinov, B., Rejabova, S., & Ismoilov, Yu. (2013). Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. Namangan: Namangan.
9. Rustambek o'g'li, K. D. (2025). USING NEURAL NETWORKS TO ANALYZE THE CREATIVE PROCESS. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(33), 63-67.
10. Alikulovich, B. A. (2021). Subject Training Disciplines as a Means of Forming Professional Competence in Future Teachers of Fine Arts. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 25(3), 8965-8989.
11. Aliqulovich, BA (2023). Vizual vositalar orqali pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. Amerika jamoat diplomatiyasi va xalqaro tadqiqotlar jurnali (2993-2157) , 1 , 438-442.

12. Berikboev, A. (2021). O'QITUVCHI KASBI VA O'QITUVCHI BO'LISH MAKORATI YO'LLARI. Konferentsiyalar arxivida (23-jild, 1-son).
13. Xamidov, D. (2024). THE IMPORTANCE OF TEACHING. ENGINEERING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS" IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 4, 320-323.
14. Ch, S. va Xamidov, D. O. (2023). AUTOCAD DASTURINING UCH O 'LCHAMLI LOYIHALASH IMKONIYATLARI." MODELING" PANELI BUYRUQLARI." VISUAL STYLES", "VIEW" PANELI BUYRUQLARI VA ULARNING IMKONIYATLARI. Iqtisodiyot va jamiyat , (5-2 (108)), 325-329.
15. Olimjon o'g'li, K.D. (2025). MUHENDANSIK GRAFIKASINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARINI TAKMILLATISH. INTELLEKTUAL TA'LIM TEXNOLOGIK YECHIMLARI VA INNOVATION DIGITAL VOLOTLAR , 3 (33), 68-70.
16. Xoljigitovich, M. I. (2025). INTERYERDA KOSHINLI BEZAK TURLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. MASTERS, 3(3), 41-46.
17. Bohodirovna, K. D. (2024). TASVIRIY SAN'ATDA O'ZBEK MILLIY O'YINLARI KOMPOZITSIYASINING YORITILISHI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(12), 34-37.
18. Bohodirovna, K. D. (2024). TASVIRIY SAN'AT VA FALSAFA O 'RTASIDAGI O 'ZARO BOG'LIQLIK HAMDA ULARDAGI ESTETIK TUSHUNCHALARNING INSONIYAT MADANIYATIGA TA'SIRI. Научный Фокус, 2(19), 356-358.
19. Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI. MASTERS, 3(2), 137-141.
20. Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYA FANINI O 'QITISHDAGI INNOVATION USULLARINING AHAMIYATI. YOSH OLIMLAR, MAGISTR VA IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA ULARGA QARATILGAN KREATIV G 'OYALAR, YECHIM VA TAKLIFLAR, 3(26), 35-39.